

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

M.R. Musayeva, M.A. Zaidova, F.S. Islamova

**“INFORMATIKA VA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI”**

fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma  
I - semestr

Toshkent-2012

## MUNDARIJA

### I - SEMESTR

Kompyuter texnikasi bilan ishlashda sanitariya qoidalari va normativlariga jrioya qilish.

**1- Amaliy mashg'ulot – 2 s.**

Kompyuterda axborotlarni tasvirlash.

**2- Amaliy mashg'ulot – 2 s.**

Kompyuterning tarkibiy qismlari va ularning ishlash printsipi. Sistemalar bloki elementlari bilan tanishish.

**3- Amaliy mashg'ulot – 2 s.**

MS DOS operatsion tizimi.

**4- Amaliy mashg'ulot – 2 s.**

WINDOWS operatsion tizimi. WINDOWS ning ishchi stoli elementlari. Disketlar bilan ishlash.

**5- Amaliy mashg'ulot – 2 s.**

WINDOWS ning standart programmalari. Калькулятор va Блокнот programmasi

**6- Amaliy mashg'ulot – 2 s.**

Matn muharriri WordPad. Programmaning imkoniyatlari.

**7- Amaliy mashg'ulot – 2 s.**

Grafik muharrir PAINT. Tasvir yaratish va uni tahrirlash. Matnlar bilan ishlash.

**8- Amaliy mashg'ulot – 2 s.**

WINDOWS ning multimedia imkoniyatlari. Multimedia qurilmalari va programmalari.

**9- Amaliy mashg'ulot – 2 s.**

Algoritmash. Programmalash tillari. TURBO PASKAL algoritmik tili.

## 10-Amaliy mashg'ulot – 2 s.

TURBO PASKAL algoritmik tili yordamida arifmetik ifodalarni yozish qoidalari.

**Kompyuter texnikasi bilan ishlashda sanitariya qoidalari va normativlariga rioya qilish.**

Ishdan maqsad: Ko'zda tutilgan qoidalarga, normativlarga rioya qilishni qanchalik muhimligini talabalarga tushuntirish.

Vazifa: Kompyuterni o'chirib – yoqishdagi talablarga rioya qilib, shu qoidani amalga oshiring. Kompyuter texnikasi tomonidan zararli ta'sirlardan himoyalash usul va vositalarini sanab o'ting.

### Qisqacha ma'lumot

*Kompyuterlardan foydalanish qoidalari.*

Kompyuterlarni ishga tayyorlash va o'chirish tartiblari mavjud. Kompyuterlar 220 yoki 110 kuchlanishli elektr tarmoqlarida ishlashi mumkin. Kompyuterlar uchun kuchlanishning o'zgarishi, ayniqsa keskin o'zgarishlar xavfli bo'lishi mumkin. Shuning uchun maxsus stabilizatorlardan foydalanish kerak.

Kompyuterlarni **ishga tayyorlash** tartibi quyidagicha:

- stabilizator yoqiladi;
- printer kerak bo'lsa yoqiladi;
- tashqi qurilmalar kerak bo'lsa yoqiladi(modem,skaner va h.k.);
- monitor yoqiladi;
- sistemalar bloki (kompyuter) yoqiladi.

Shundan keyin ekranda tekshiruvchi maxsus programma natijalari, hamda operatsion tizimni ishga tushiruvchi programmalar haqida ma'lumotlar chiqadi. Kompyuterning operatsion tizimni ishga tushadi.

Kompyuterlardan to'liq foydalanish **to'g'ri o'chirishga** ham bog'liq. Buning uchun quyidagilar bajariladi:

- ishlanayotgan programmalar tugatiladi;
- operatsion tizimda chiqish protsedurasi mavjud bo'lsa, unda shu protsedura bajariladi.(пуск + завершение работы + ОТКЛЮЧИТЬ КОМПЬЮТЕР)
- sistemalar bloki (kompyuter) o'chiriladi;
- printer va boshqa tashqi qurilmalar yoqilgan bo'lsa o'chiriladi;
- monitor o'chiriladi;
- stabilizator o'chiriladi.

### Kompyuter qurilmalari ekspluatatsiyasi.

*Sistemalar bloki.* Sistemalar blokini shunday joyga qo'yish keraakki, u tebranib ham, qimirlab ham turmasligi darkor. Uni isitgichlar oldiga (masalan,batareya), va

namlik yuqori bo'lgan joylarga qo'yish tavsiya etilmaydi. Zinhor matrisali chop etish qurilmasini sistemalar bloki ustiga qo'ymaslik kerak, chunki tebranishlar kompyuterni buzilishiga olib kelishi mumkin. Kompyuterning sistemalar blokini tashqi qurilmalar bilan bog'lovchi hamma kabellarni kiritish va chiqarish faqat kompyuter o'chirilgan paytida amalga oshirilsin. Kompyuterlar turgan xonada chekish tavsiya etilmaydi.

*Monitor.* Kompyuterda unumli ishlashingiz, monitordan to'g'ri foydalanishga ham bog'liq. Quyida monitordan foydalanish tavsiyalari beriladi:

1. Monitor nozik qurilma hisoblanadi. Agar uni tushirib yuborsangiz, yangi monitor sotib olishingizga to'g'ri keladi. Monitorni shunday joyga qo'yishingiz kerak-ki, u joyida mustahkam turishi, stol chakkasiga qo'yilmasligi darkor.
2. Monitorni sizni qarashingizga qulay bo'lgan holda o'rnatish kerak. Ekranga ozgina yuqoridan pastga bo'lgan holda qarqsangiz yaxshiroq bo'lur edi, y'ani ekran ozgina egilgan, pastki tarafi esa Sizga yaqinroq bo'lgani ma'qul.
3. Monitor tasvirini to'g'ri sozlash kerak (яркость, контрастность) Noto'g'ri sozlangan monitor ko'zingizni tez xiralashuviga olib keladi. Yorug'ligi juda katta bo'lgan monitor ko'zingizni tez charchashiga olib keladi.
4. Monitor tez changlanib qoladi. Shuning uchun sal namroq bo'lgan lattada artib turish kerak. Foydalanib bo'lgandan keyin monitor ustini bir narsa (material) bilan yopib qo'yish kerak.
5. Zinhor monitor qopqog'ini ochish yoki ichidagi uskunalarga tegish kerak emas, chunki monitor ichida joylashgan kineskop yuqori kuchlanishga ega.

*Klaviatura.* Klaviatura eng isonchli qurilma bo'lishiga qaramay buni biz suiste'mol qilmasligimis kerak. Y'ani-kim, klaviatura yonida buterbrot, choy iste'mol qilmaslik kerak. Uvoq va suv uni ishdan chiqarishi mumkin. Kompyuterda ishlab bo'lganningizdan keyin klaviatura qopqog'ni yopib qo'ying. Bu uni changlardan va ifloslardan saqlab turadi.

*Disketlar.* Disketlardan ehtiyotlab foydalanish kerak. Diskovodga tartibli joylashtirish kerak. Bukish, egish, magnit qoplamani qo'l bilan ushlamaslik kerak. Suv hamda chang kirishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

*Kompakt-disklar.* Kompakt-disk ustini qo'l bilan (ayniqsa, yog'lik) ushlamaslik kerak, chunki bundan disk noto'g'ri o'g'ilishi mumkin. Disklarni maxsus qutilarda saqlang. Kompakt-diskni ikki yonidan ushlang.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Kompyuterni yoqish tartib-qoidalarini aytib bering?
2. Kompyuterni o'chirish tartib-qoidalarini aytib bering?
3. Sistemalar bloki ekspluatrasiyasi?
4. Monitorni ishlatishda qanday tartib-qoidalarga rioya qilish kerak?
5. Klaviaturani ishlatishda qanday tartib-qoidalarga rioya qilish kerak?
6. Disk va disketlarni ishlatish tartiblari haqida gapiring?

## **1- Amaliy mashg'ulot.** **Kompyuterda axborotlarni tasvirlash.**

Ishdan maqsad: Sanoq sistemasi haqida tushunchaga ega bo'lish. Kodlashtirish turlari bilan tanishish.

Vazifa: 1. Variantingizni olib, uni bajaring  
2. Sonli-alfavit axborotlarni kodlashtirishni o'rganing.

### **Qisqacha ma'lumotlar**

Kompyuterdagi eng kichik axborot birligi – bit. U 0 yoki 1 dan iborat. Ammo amalda bundan ko'ra yirikroq bo'lgan axborot birligi – bayt ishlatiladi. Bayt 8 bitdan iboratdir.

1 Kbayt=1024 bayt  
1 Mbayt=1024 Kbayt  
1 Gbayt=1024 Mbayt  
1 Tbayt=1024 Gbayt  
1 Pbayt=1024 Tbayt

Masalan: Bir kitob 250 varaqdan iborat. Va har bir varaq 30 qatordan, 75 simvoldan iborat. Kitobdagi axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)

Yechish: Birinchi, bir varaqda qancha simvol borligini hisoblaymiz:  
 $30 \cdot 75 = 2250$

Endi kitobda qancha simvol borligini hisoblaymiz:  
 $2250 \cdot 250 = 562\,500$

Kitobdagi axborot hajmini:  
 $562500 \cdot 8 = 4\,500\,000$  бит, yoki  $562\,500$  байт, yoki  $549$  Кбайт

### **Sanoq sistemasi.**

*Sanoq sistemasi* bu natural sonlarni ifodalash usullari majmuidir. Sanoq sistemasining ikki turi mavjud:

nopozitsion va pozitsion.

*Nopozitsion* sanoq sistemasi raqamlarning o'rniga bog'liq bo'lmagan qiymati printsiptiga asoslangan. Bunga rim raqamlari misol bo'la oladi. (Masalan, I, II, XI, XXX va h.k.)

*Pozitsion* sanoq sistemasi raqamlarning o'rniga bog'liq qiymati printsiptiga asoslangan, ya'ni biror-bir raqam sonlar yozuvidagi o'rniga qarab har xil son qiymatlarga ega bo'ladigan sanoq sistemasidir.

Pozitsion sanoq sistemasiga quyidagilar kiradi:

Ikkilik - 0,1

Sakkizlik – 0,1,2,3,4,5,6,7

O'nlik – 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9

O'n oltilik – 0,1, ... 9, A,B,C,D,E,F

### Alfavit-sonli axborotlarni kodlashtirish.


*Kodlash* – axborotni shartli belgilar va qoidalar tizimi yordamida tasvirlashdir. Har qanday axborot kompyuter xotirasida 0 va 1 raqamlarining ketma-ketligi yordamida kodlanadi.

Alfavit-sonli axborotni bayt deb ataluvchi 8 razryadli so'zlar bilan ifodalash mumkin. Bayt 256 ta turli qiymat qabul qila olishi sababli 256 ta turli simvollarni kodlash mumkin. Bunday kodlashtirish bir baytli deb ataladi. Ikki baytli kodlash Unicode hozirda keng tarqalgan, bunda simvollar kodi 0 dan 65 535 ta turli sonlarni kodlash mumkin.(masalan, Windows NT operatsion tizimi)

ES EVM larda ikkilik kodlashtirish (DKOI), mikroprotsessorlarda, shaxsiy kompyuterlarda, mikroEHM larda ASCII kodlashtirish usuli qo'llaniladi.

Microsoft firmasi Windows kompyuterlari uchun ANSI kodlashtirish jadvalini yaratdi.

Keyin "rus" versiyali ANSI – jadvali ishlandi. Windows uchun birinchi kodlashtirish OEM – kodlashtirish edi. Windows ning keyingi versiyalarida OEM dan ANSI ga va aksincha teskarisiga o'tkazish standart funksiyalari mavjud.



7

Misol: DKOI da kodlashtirish

1. 1917 - 1-11110001  
9-11111001  
1-11110001  
7-11110111 – 4 bayt
2. oHa - o-11011011  
H-11011010  
a-01110111 – 3 bayt
3. -6.285 - - 01100000  
6-11110110  
. -01001011  
2-11110010  
8-11111000  
5-11110101 -6 bayt

ANSI da kodlashtirish

1. 1917 - 1-00010011  
9-10010011  
1-00010011  
7-01110011 – 4 bayt
2. oHa - o-11101110

3.       -6.285 -       H-11011110  
                          a-00001110 – 3 bayt  
                          - 11010010  
                          6-01100011  
                          .-11100010  
                          2-00100011  
                          8-10000011  
                          5-01010011 -6 bayt

## VARIANTLAR

### 1 variant

1. Bir kitob 56 varaqdan iborat. Va har bir varaq 20 qatordan, 92 simvoldan iborat. Kitobdagi axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 4 , non

### 2 variant

1. Har bir varaq 25 qatordan, 60 simvoldan iborat. Kitobdagi 4 varaqni axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 9 , соН

### 3 variant

1. Bir kitob 200 varaqdan iborat. Va har bir varaq 15 qatordan, 68 simvoldan iborat. Kitobdagi axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 1 , big

### 4 variant

1. Har bir varaq 32 qatordan, 57 simvoldan iborat. Kitobdagi 11 varaqni axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 3 , ëз

### 5 variant

1. Bir kitob 6 varaqdan iborat. Va har bir varaq 41 qatordan, 87 simvoldan iborat. Kitobdagi axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 8 , cat

### 6 variant

1. Har bir varaq 12 qatordan, 34 simvoldan iborat. Kitobdagi 788 varaqni axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 7 , ўрмон

### 7 variant

1. Bir kitob 125 varaqdan iborat. Va har bir varaq 23 qatordan, 56 simvoldan iborat. Kitobdagi axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 2 , Long

### **8 variant**

1. Har bir varaq 37 qatordan, 66 simvoldan iborat. Kitobdagi 6 varaqni axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 7 , кўча

### **9 variant**

1. Bir kitob 700 varaqdan iborat. Va har bir varaq 45 qatordan, 89 simvoldan iborat. Kitobdagi axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 1 , pen

### **10 variant**

1. Har bir varaq 44 qatordan, 73 simvoldan iborat. Kitobdagi 990 varaqni axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 0 , шамол

### **11 variant**

1. Bir kitob 15 varaqdan iborat. Va har bir varaq 23 qatordan, 67simvoldan iborat. Kitobdagi axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 4 , latter

### **12 variant**

1. Har bir varaq 10 qatordan, 30 simvoldan iborat. Kitobdagi 30 varaqni axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 9 , бағр

### **13 variant**

1. Bir kitob 148 varaqdan iborat. Va har bir varaq 28 qatordan, 88 simvoldan iborat. Kitobdagi axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 2 , house

### **14 variant**

1. Har bir varaq 18 qatordan, 45 simvoldan iborat. Kitobdagi 7 varaqni axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 7 , садо

### **15 variant**

1. Bir kitob 400 varaqdan iborat. Va har bir varaq 21 qatordan, 82 simvoldan iborat. Kitobdagi axborot hajmini hisoblang (bit,bayt,Kbayt)
2. ANSI va DKOI da kodlashtiring: 8 , cofe

## **Nazorat uchun savollar**

1. Axborot nima?
2. Axborotning o'lchov birligini ayting?
3. Sanoq sistemasi va uning turlari haqida gapirib bering?
4. Kodlashtirish nima?
5. Qanday kodlashtirishlar ishlatiladi?

## **2- Amaliy mashg'ulot.**

### **Kompyuterning tarkibiy qismlari va ularning ishlash printsiplari. Sistemalar blokida joylashgan qurilmalarni o'rganish.**

Ishdan maqsad: Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari bilan tanishish. Ularning ishlash printsiplarini o'rganish. Sistemalar blokining ichki sxemasi bilan tanishish.

Vazifa: 1. Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalarini tahlil qilgan holda o'rganing.  
2. Mustaqil printer nima, uni qanday turlari mavjud. Ishlash printsiplarini yozib keling.  
3. Sistemalar bloki sxemasini daftaringizga chizing va unda joylashgan qurilmalarni o'rganing

### **Qisqacha ma'lumotlar**

Kompyuterning asosiy qurilmalariga quyidagilar kiradi:

- sistemalar bloki, bunda kompyuterning eng asosiy qismlari joylashgan bo'ladi;
- monitor (display, ekran) – matnli va rasmlilarni axborotlarni ekranda tasvirlash qurilmasi;
- klaviatura – simvollarni kompyuterga kiritish qurilmasi.

Kompyuterning imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida quyidagi qo'shimcha qurilmalarni ulash mumkin:

- manipulatorlar – kompyuterga axborotlarni kiritishni engillashtiruvchi qurilma. Kursorni boshqarishda qo'llaniladigan maxsus qurilma.

Bularga: sichqoncha, djoystik, trekbol, digitayzer (tayyor tasvirlarni raqamli formaga o'tkazish qurilmasi.) u stolda turadigan planshet va perodan iborat.

- printer – chop qilish qurilmasi. Axborotlarni qog'ozga chiqaradi. Hozirda printrlar: matritsali, purkaguvchi (oqimli), lazerlilarga bo'linadi.

- skaner – kompyuterga matnli yoki tasvirli ma'lumotni kirituvchi qurilma. Skanerlar belgilarni ham aniqlaydi, shuning uchun qo'lyozmalarni kompyuterga kiritish mumkin.

Skanerlar 2 xil bo'ladi: avtomatik va noavtomatik. Birinchisi ma'lumotni varaqlab o'qiydi, ikkinchisi satrlab, buning uchun skanerni kerakli satrga qo'l bilan surib turish kerak.

- plotter – chizmalarni qog'ozga chiqaruvchi qurilma. Plotterlar 2 xil bo'ladi: barabanli va planshetli. Barabanligi rulonli, planshetligi varaqli qog'ozga chiqaradi. Plotterlar loyihachikar, chizmachilar, kartografiya mutaxassislariga qulay.

- Strimmer – kompyuterning vinchesteridagi ma'lumotlarni nusxasini zahiraga olish uchun mo'ljallangan qurilma bo'lib, ma'lumotlarni magnit lentali kassetaga

(kartridjga) yozishga mo'ljallangan.(20 Mbaytdan 40 Gbaytgacha ma'lumotni bir kassetaga sig'dira oladi.)

- Modem- bu misoli kompyuter va telefon tarmog'i o'rtasidagi tarjimon hisoblanadi. Kompyuterdan boshqa kompyuterga o'rtadagi telefon liniyasidan foydalanib ma'lumot yubormoqchi bo'lsangiz, u holda modem albatta kerak bo'ladi. Chunki kompyuter ma'lumotini modem modullashtirib, yani raqamli ma'lumotni analog signallarga aylantirib telefon liniyasiga o'tkazadi. Telefon liniyasidan u tomonidagi boshqa modem esa teskari amalni bajarib, analog signallarni raqamli ma'lumotga aylantiradi. Bu hodisani demodullashtirish deb atash qabul qilingan. Ichki va tashqi modem bor.Hozirda 2400-56000 bod(bit) darajasida ishlaydigan modemlar mavjud.

- Kompakt disklar 700 Mbaytgacha ma'lumotlarni saqlaydi. Har xil turdagi axborotlarni saqlaydi. CD-R -o'quvchi , CD-RW -o'quvchi va yozuvchi.

*Monitorlar.* Kompyuter bilan bo'ladigan muloqotni ekranda ko'rish uchun xizmat qiladi.Monitor 2 xil rejimda: matn yoki grafik axborot chiqaradi.

Monitorlar monoxrom(oq-qora) va rangli bo'lishi mumkin Ular bir-biridan razmerlari (14dyumdan 22 dyumgacha) bilan farqlanadi. Har xil monitorlar ekranga turlicha miqdorda nuqtalar gorizont-al-vertikal bo'yicha 640 x 480 dan 3840 x 2400 tagacha hosil qila oladi. Bu sonlar qancha ko'p bo'lsa, monitor aniqligi yaqqolroq bo'ladi.

Kompyuterga monitor ulash uchun maxsus videoadapter zarur. Videoadapter – tasvir to'g'risidagi ma'lumotlar saqlanadigan xotiraning muayyan qismini monitorda aks ettiruvchi signalni,hamda sinxronizatsiya signallarini gorizont-al va vertical taqsimlab shakllantirishdan iborat.

Avvaliga MDA (Monochrome Display Adapter)

CGA (Color Graphics Adapter)

EGA (Enhanced Graphics Adapter)

VGA (Video Graphics Adapter)

SVGA (Super VGA).

Monitorlar – electron-nurli

- suyuqkristalli
- gazo-plasmali
- sensorli
- perspektiv displeyi (ploskopanelnie,nanotrubki, FED-,DLP-)
- aylanuvchi proektorlar

**Klaviatura** - foydalanuvchi tomonidan axborotlarni kompyuterga kiritish uchun mo'ljallangan qurilmadir. Kompyuterlar uchun 83, 101, 105 tugmachali, multimediali klaviaturalar ishlab chiqariladi.

Klaviaturadagi klavishlarni quyidagi guruhlariga ajratamiz:

- alfavit-raqamli va belgili klavishlar (probel, raqamlar 0 – 9, lotin harflari A-Z , kirill harflari A-Я, belgilar - @,\$,\,\* va h.k.);
- funksional klavishlar: F1,F2, ..., F12;
- xizmatchi klavishlar: ENTER, ESC, Caps Lock va h.k.
- yordamchi klaviatura.

Xizmatchi klavishlarni ayrimlarini yoritib o'tamiz:




Kiritish tugaganligini bildiradigan signal. OK tugmachasini bosish




Noto'g'ri terilgan direktiva yo'ki bajarilayotgan programmadan voz kechish uchun xizmat qiladi.



Kursorni satr boshiga keltirish



Kursorni satr oxiriga keltirish




Sahifa boshiga kursorni keltiradi



Sahifa oxiriga kursorni keltirish




Kursor turgan pozitsiyadagi simvolni o'chiradi.



Simvol kiritilayotgan vaqtda bosilsa, kursor ko'rsatayotgan pozitsiyadagi mavjud simvol o'rniga yangisi uriladi. Agar maskur klavish bosilmasa, bor simvol bir pozitsiyaga, o'ngga surilib oraga yangi simvol kiritiladi




kursor turgan pozitsiyadanchapdagi belgini o'chiradi



ekrandagi tasvirni qog'ozga print orqali bosib chiqaradi, undan tashqari faylga va Windows buferiga nusxa ko'chirishga xizmat qiladi.



Klavishi programma ishini to'xtatish uchun ishlatiladi.



Maxsus ko'rsatilgan pozitsiyaga surish.



Boshqa klavishlarning vazifasini o'zgartiradigan klavish



O'tkazgichlarni blakirovka qiladigan klavish

Num Lock

Sonlarni blakirovka qiladigan klavish

Caps Lock

Bosh yoki kichik harflarga o'tish klavishi

Shift

Alt

Shift

Ctrl

Bir alfavitdan ikkinchisiga o'tkazadi

Ctrl

Alt


Del

“Диспетчер задач” ni ekranga chiqaradi yoki bajarilayotgan programma to'xtatiladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Kompyuter nima?
2. Kompyuterning qanday cinflarini bilasiz?
3. Quyidagi tushunchalarga ta'rif bering: buyruq, registr, trigger
4. Kompyuterning mantiqiy sxemasini chizing?
5. Kompyuterning asosiy qurilmalari, ularning ishlash prinsipi
6. Kompyuterning qo'shimcha qurilmalari, ularning ishlash prinsipi
7. Sistemalar bloki elementlarini tushuntirib bering?
8. Klaviaturaning tugmachalar majmuini tushuntiring/
9. Monitorlar, ularning turlari.

# S I S T E M A L I B L O K





### 3- Amaliy mashg'ulot. MS DOS operatsion tizimi.

Ishdan maqsad: MS DOS operatsion tizimining ishlash jarayonlaridagi foydalaniladigan asosiy buyruqlari bilan tanishish

Vazifa: 1. Quyida berilgan buyruqlarni kompyuterga kiritib, MS DOS muhitida ishlashni o'rganing.  
2. Matli faylni yaratganda kamida 6 qatorli axborot yozing.

#### Qisqacha ma'lumotlar

MS DOS muhitini ishga tushirish uchun quyidagi jarayonni bajaramiz:

ПУСК → ПРОГРАММЫ → СТАНДАРТНЫЕ → СЕАНС MS DOS

Ekranda uning qora-oq oynasi paydo bo'ladi:

Agar DOS foydalanuvchi bilan muloqot qilishga tayyor bo'lsa, unda ekranga qudagi ko'rinishdagi *taklifini* beradi:

C:\>

Taklif sizdan buyruq kiritishingizni kutayotganini bildiradi.

Buyruqlar klaviatura orqali kiritiladi va

Enter klavishi (tugmasi) bosiladi.

( [ctrl] + [O] - tugmalari kombinatsiyasi ekranni tozalaydi)

Quyida keltiralidan buyruqlar MS DOS OT ning COMMAND.COM tashkil etuvchisining ichki buyruqlaridir.

1. Ma'lumotnomani (spravkani) chaqirish uchun quyidagi buyruq teriladi

**HELP**

2. **TIME** – joriy vaqt to'g'isidagi ma'lumotni ekranga chiqaradi

3. **DATE** - buyrug'i yordamida joriy kunni, oyni va yilni bilish mumkin.

4. **DIR** – joriy catalog mundarijasini ekranga chiqarish

**dir/p** – fayllar to'g'isidagi ma'lumotni sahifalab chiqaradi.

**dir/w** – faqat fayllar nomlarini chiqaradi.

5. Matnli fayl hosil qilish uchun quyidagi buyruqni terasiz:

**copy con** fayl nomi

So'ngra kiritmoqchi bo'lgan matnni qatorma-qator kiritib, har qatordan so'ng [Enter] ni bosib borasiz. So'nggi qatordan keyin F6 klavishi hamda [Enter] ni bossangiz

I file(s) copied (bitta fayl ko'chiriladi)

Degan ma'lumot ekranga chiqadi

6. Faylni qayta nomlash uchun

**Ren** 1-fayl nomi 2-fayl nomi

buyrug'i xizmat qiladi

7. Ekranga matnli fayllarni chiqarish uchun quyidagi buyruq teriladi:

**Type** fayl nomi

8. Yangi catalog hosil qilish uchun quyidagi buyruq teriladi

**md** [disk] yo'l

Masalan: md XXX yoki md a:\ WORK

9. Katalogni qayta nomlash uchun

**move** catalog nomi yangi catalog nomi

buyrug'i teriladi:

10. Fayllarni nusxasini olish uchun

**Copy** 1-fayl nomi 2-fayl nomi

yoki **Copy** 1-fayl nomi ( 2-katalog nomi)

buyrug'i teriladi.

Masalan: copy aa.dat + dd.dat ra.dat (fayllarni birlashtiradi)

11. Fayllarni o'chirish uchun

**Del** fayl nomi

Buyrug'i xizmat qiladi

12. Katalogni o'chirish uchun

**rd** [disk] yo'l

buyrug'i teriladi:

13. Joriy diskni o'zgartirish uchun

Masalan: **D:** yoki **A:** yoki **C:** buyrug'i teriladi:

14. Joriy katalogni o'zgartirish uchun quyidagi buyrug' teriladi:

**CD** yo'l

Masalan: cd nc, cd vc yoki cd tc

15. Disketlarni formatlash uchun quyidagi buyrug'i teriladi:

**FORMAT** mantiqiy disk

Buning uchun diskovodga A (yoki B) diskni kirgizib, keyin buyruqni berish kerak

FORMAT A: (yoki B:)

16. Monitor ekranini tozalash uchun

**cls**

buyrug'i teriladi:

17. Hosil bo'lgan faylni chop qilish uchun

**Copy** fayl nomi **prn**

buyrug'i teriladi.

### **Nazorat uchun savollar.**

1. MS DOS OT haqida ma'lumot bering?
2. MS DOS OT tashkil etuvchilarini aytib bering?
3. MS DOS muhitini ishga tushirish va u bilan muloqot qanday amalgam oshiriladi?
4. COMMAND.COM tashkil etuvchisining ichki buyruqlarini sanab o'ting?

### **4- Amaliy mashg'ulot.**

**WINDOWS operatsion tizimi. WINDOWS ning ishchi stoli elementlari.**

**Disketlar bilan ishlash.**

Ishdan maqsad: WINDOWS ning ishchi stoli elementlarini o'rganish.

- Vazifa:
1. Ishchi stolning hamma elementlarini o'rganing
  2. Masalalar paneli orqali ishga tushiriluvchi buyruqlarni o'rganing
  3. Oynalar, yorliqlar, menyu, papkalar bilan ishleng
  4. Saqlash, ko'chirish, o'chirish, qo'yishlarni mashq qiling
  5. Tashqi xotira qurilmalari bilan ishleng (disket, CD-disk, fleshka)
  6. Papka yarating

## Qisqacha ma'lumotlar

WINDOWS degani inglizchadan oyna degan ma'noni anglatadi. WINDOWS OT asosiy maqsadi – kompyuterdan foydalanishni iloji boricha sodda va o'rganish uchun oson, shu bilan birga, foydalanuvchiga mumkin qadar keng imkoniyatlar yaratish holiga keltirishdir. Kompyuterni yoqganingizdan so'ng, operasion tizim yuklanadi. Ekranda namoyon bo'lgan bu ko'rinish WINDOWS ning (desktop) **ishchi stoli** deb ataladi.




WINDOWS ning bu ekrani ishchi stoli deb ataladi. Sizning ishchi xonangizda xujjatlar, asboblari, yozuv qog'ozlari, musor soladigan chelakcha va shu kabilardan joylashganidek kompyuter ekranida ham ishlashi uchun kerak bo'lgan standart elementlar joylashtirilgan. Ammo shu ish stoli ko'rinishini foydalanuvchi tomonidan o'zgartirib turilishi ham mumkin. Siz bilan ishchi stolning standart elementlari bilan tanishamiz.


1. Masalalar paneli (Boshqarish paneli). Masalalar panelini ekran chegarasining hohlagan qismiga: tepa yoki pastga, char yoki o'ngga joylashtirish mumkin.




ПУСК quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:



Bu yerda obekt bilan ulanish mumkin bo'lgan kompyuter resurslari joylashadi



-foydalanuvchi tomonidan yaratilgan hujjatlar saqlanadi.



-tarmoqqa ulanish imkoniyatini yaratadi.



- olib tashlangan (yo'qotilgan) fayllarni vaqtincha saqlovchi joy bo'lib, u o'sha fayllarni kerak bo'lganda qayta tiklashi mumkin.



- veb-sahifalarni ko'rish uchun mo'ljallangan programma

**Menyu** bu biror operatsiyani bajarish imkonini beruvchi buyruqlar majmuidir. WINDOWS dan foydalanuvchilar 3 turdagi menyu bilan ishlashlari mumkin.

- OS ning asosiy menyusi(ПҮСК menyusi);
- barcha ob'ektlarning kontekst menyulari;
- muloqot menyulari;

Menyular monitor ekranida joylashishiga ko'ra, vertikal va gorizontal menyularga bo'linadi. Programma oynalarining menyusi gorizontal bo'lib, u sarlavha satrining tagida joylashgandir.

Vertikal menyu – yuqoridan pastga qarab ochiluvchi menyudir.

**Asosiy menyu** “ПҮСК” tugmachasi bosilganda ochiladi, uning vazifasi programmani ishga tushirish, hujjatni ochish, sistema parametrlarini sozlash, kerakli faylni topish, zaruriy ma'lumotlarni olish va x.k. bajarish mumkin.


**Kontekst menyu** – oynaning ixtiyoriy joyida sichqonchanning o'ng tugmasini bosish yordamida ochiladi. Bu menyu bandlari qaysi element ajratilgani, qanday operatsiya bajarilayotgani va shu kabi holatlarga bog'liq holda o'zgaradi.

Muloqot menyusi bu programma,hujjat oynalari, shuningdek muloqat oynalarining boshqaruvi menyusidir.


### WINDOWS da oynalar bilan ishlash.

WINDOWS da har bir programma yoki hujjat o'z oynasiga ega. Oyna bu foydalanuvchi ishlayotgan biror programmaga tegishli bo'lgan ekranning tasviriy ajratilgan bir qismidir. Oyna istalgan o'lchamda bo'ladi. Ekrandan bir necha programmalar oynasi birin ketin turib, ochilgan bo'lishi mumkin, ammo qaysi oynaga murojaat qilinsa, o'sha oyna sarlavhasi to'q ko'k rangga ega bo'ladi va u aktiv oyna hisoblanadi.


Oynaning yuqari qismi sarlavha satri deyiladi va bunda programma yoki hujjatning nomi yoziladi. O'ng tomonida 3ta tugma bor.




*свернуть oynani pigtogramma kshrinihida oynani yigish va masalalar paneliga joylashtirish*



*развернуть oynani katta kilib ochish*



*восстановить яна уз холига кайтариш*



*oynani ёпиш (закрывать)*

WINDOWS programmalar ilova deb yuritiladi.

Pigtogramma –maxsus rangli rasmcha bo'lib, uni ko'pincha yorliq, nishon, belgi deyish ham mumkin.

WINDOWS da papka yaratish uchun, birinchidan joyni belgilab olasiz, so'ng sichqonchani o'ng qulog'ini bosib СОЗДАТЬ → ПАПКУ → nom berasiz → OK

## **Nazorat uchun savollar**

1. Windows operasion tizimi haqida gapirib bering?
2. Windows ning ishchi stoli va uning elementlarini gapiring?
3. Masalar paneli elementlarini tushuntiring?
4. Menyu nima?
5. Menyuning necha turi bor, tushuntiring?
5. Oynalar bilan ishlash usullari
6. Windows da papkalar qanday yaratiladi?

## 5- Amaliy mashg'ulot.



### WINDOWS ning standart programmaları. Калькулятор va Блокнот программаси

Ishdan maqsad: Калькулятор va Блокнот программасини o'rganish.


- Vazifa:
1. Oddiy, injenerlik va statistik hisoblashlarni bajarang.
  2. Калькулятор hotirasi bilan ishlang.
  3. Блокнот программасини ойна elementlarini o'rganing.
  4. Variantingizni olib, vazifani bajarang.
  5. Faylni o'z papkangizda saqlang.

### Qisqacha ma'lumotlar

**Калькулятор** программаси yordamida oddiy, injenerlik va statistik hisoblashlarni bajarishimiz mumkin. Oddiy Калькуляторни **ishga tushirish** uchun quyidagilardan birini amalga oshiramiz:


1. ПУСК → ПРОГРАММЫ → СТАНДАРТНЫЕ → КАЛЬКУЛЯТОР
2. ПУСК → ВЫПОЛНИТЬ → CALC
3. Windows ning ishchi stoli → 
4. Masalalar paneli → 
5. Мой компьютер → локальный диск (C) → Documents and Settings → Главное меню → Программы → Стандартные
6. ПУСК → Найти → Калькулятор





Калькулятор **ishini tugatish** uchun quyidagilardan birini amalga oshiramiz:

1. Sarlavha satri → 
2. [Alt]+[F4]
3. [Ctrl]+[Alt]+[Del] Диспетчер задач → Закрывать
4. Sarlavha satri → Системный меню → Закрывать

Ishga tushirish prosedurasi bajarilgandan so'ng, Windows ning ishchi stolida kalkulyator oynasi paydo bo'ladi. Oйна elementlari quyidagicha:

1. Sarlavha satri
2. Menyua satri
3. Ishchi maydon
4. Tugmachalar majmui






Oddiy hisoblashlarni bajarish uchun

1. Birinchi sonni kiriting.
2. + (qo'shuv), - (ayiruv), \* (ko'paytiruv) или / (bo'luv) tugmachani bosning
3. Keyingi sonni kiriting.
4. Keyingi [operatorlar](#) va sonlarni kiriting.
5. = tugmachasini bosning.

Muhandislik hisoblashlarni bajarish uchun

1. **Вид** ga kirib **Инженерный** buyrug'i tanlanadi
2. [Sanoq](#) sistemasi tanlanadi.
3. Talab qilingan javobning razradi ko'rsatilib, hisoblashga o'ting.




Statistik hisoblashlarni bajarish uchun

1. **Вид** → **Инженерный** tanlanadi
2. Birinchi sonni kiritamiz va Statistika oynasini ochish uchun **Sta** tugmasini bosamiz.
3. Калькулятор oynasiga qaytish uchun **RET** tugmasi bosiladi, shundan so'ng, bu qiymatni saqlash uchun **Dat** tugmasi bosiladi
4. Qolgan qiymatlarni kiriting va har biridan keyin **Dat** tugmasini bosing.
5. **Ave**, **Sum** yoki **s** tugmalarini bosing.

**Ave** – o'rtacha qiymatni hisoblaydi;

**Sum** – summani oladi;

**S** – sig'magan standart burilishni ko'rsatadi



**LOAD** tugmasi Statistika da tanlangan son bilan Калькулятор da tasvirlangan sonni o'zgartirish mumkin.

**CD** tugmasi ro'yhatdagi istalgan sonni o'chirish mumkin.

**CAD** tugmasi ro'yhatdagi hamma sonni o'chirish mumkin.


Xotira bilan ishlash uchun:

- **MS** tugmasi sonni xotiraga oladi.
- **MR** tugmasi sonni xotiradan chiqaradi.
- **MC** tugmasi xotirani tozalaydi.
